

# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> May, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

## TERMINOLOGIK OMONIMIYA, UNING TASNIFI VA TALQINI

Feruz Rajabov Umarqulovich

QarshiMII akademik litseyi

ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Bu maqolada soha va sohalararo terminologik omonimlarning yuzaga kelish sabablari, tasnifi va talqini tilshunoslikka xos manbalarga tayangan holda asoslanib, tahlilga tortilgan.

**Kalit soʻzlar:** omonimiya, tashqi omonimlik, bank-moliya, logistika, sohalararo. Tilshunoslik rivojining birinchi bosqichlaridayoq omonimiya muammosi yuzaga kelganligini taʼkidlash joizdir, negaki ular lugʻat yaratishda koʻp maʼnoli va omonim soʻzlar maʼnolarini chegaralovchi qatʼiy mezonlarni ishlab chiqilish talabini yuzaga keltirdi. Shundan buyon, omonimiya, polisemiya muammolari turli maktab va davr tilshunoslari tomonidan tadqiq etilganligiga qaramasdan, koʻp maʼnolilik kategoriyasi chegarasini aniqlash masalasi hamon muammoligicha qolmoqda. Leksikologik va leksikografik tasniflarga muvofiq omonimiyaning quyidagi jihati, yaʼni «omonimlar har doim turli shaklda va faqat tarixiy rivojlanish jarayonida turli fonetik va odatda tasodifiy sabablarga koʻra bir-biriga mos keladigan teng sonli nutq tovushiga ega soʻzlar»<sup>1</sup>, deya koʻp hollarda eʼtirof etiladi. Albatta, bu kabi yondashuv mezonlarning aniqligi bilan ajralib turadi, chunki soʻzning etimologiyasi har doim omonimiya va polisemiya holatlarini aniq ajratish imkonini beradi. Akademik V.V.Vinogradov taʼkidlaganidek, «omonimlarni amalda faoliyat koʻrsatuvchi til tizimida aniqlash va belgilash tamoyillari ularni tarixiy va qiyosiy-tarixiy oʻrganish usullaridan keskin farq qiladi»<sup>2</sup>. Maʼlum bir tilda soʻzlashuvchilar har doim ham bir soʻz maʼnolarining rivojlanishini qayta qurish, uning diaxronik aspektida aniqlangan munosabatini anglash imkoniyatiga ega emas. Bundan tashqari, soʻz hosil qilish yoʻllari va sintaktik moslashuv shakllari polisemiya va omonimiyani farqlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, koʻp maʼnoli soʻz ikki yoki undan

<sup>1</sup> Арсеньева, М.Г. Многозначность и омонимия / Арсеньева М.Г., Строева Т. В., Хазанович А. П.; Ленингр.

гос. ун-т им. А. А. Жданова. Л.: Изд-во Ленингр. ун-та, 1966. – С.3.

<sup>2</sup> Виноградов В.В. Об омонимии в русской лексикографической традиции. // Виноградов В.В. Избранные труды. Лексикология и лексикография. – М., 1977. –С. 290.



# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> May, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

ortiq leksik birliklardan iboratligi inkor etilganida, gapning turli bo‘laklariga tegishli bir xil nutq tovushiga ega birliklarni tan olish kerak bo‘ladi. V.M.Leychik omonimiya va polisemiyaning farqlashning quyidagi mezonini taklif qildi: «polisemiya olingan terminlarning semantik strukturasi umumiy asosiy semani saqlab qolgan holda termin ma’nosini ajratish yoki nomni boshqa tushunchaga o‘tkazish natijasida hosil bo‘ladi yoki aksincha, ikkilamchi semalar bir-biriga mos kelib, asosiy sema bo‘linsa, semantik omonimiya hosil bo‘ladi»<sup>3</sup>. Agar omonimiyani yanada chuqurroq qilib ma’lum bir aspekt doirasida, ya’ni terminlar omonimiyasi sifatida o‘rganilganda, turli termin tizimlarida qo‘llanadigan bitta termin ma’nolari bir-biridan tubdan farq qilsa-da, umumiy semalar mavjudligi yaqqol ko‘ringan bo‘lar edi. Terminologik omonimiyaning turli variantlarini hisobga olgan holda, uch xil omonimik munosabat hamda terminologik omonimiyaning turi mavjudligini ta’kidlash joiz:

- 1) terminologik va umumiy adabiy tizimlar birliklari orasidagi tizimlararo (makrotizimli) omonimiya;
- 2) termin tizimlararo (fanlararo) turli termin tizim birliklari o‘rtasidagi omonimiya;
- 3) termin tizim birliklari orasidagi ichki tizim omonimiyasi.

Omonimiya ko‘p ma’noli so‘zlarning boshqa-boshqa leksemalarga aylanishi jarayoni natijasi bo‘lib, fanlararo va sistemalararo omonimiya nomi ostida terminologiyadan joy oladi<sup>4</sup>. Terminologiya tizimida atamalarning shakldoshligi, ya’ni omonimiyasi alohida xususiyat kasb etadi. Terminologik tizimga xos omonimlikning ikki ko‘rinishi mavjud: a) tashqi omonimlik; b) ichki omonimlik. Tashqi omonimlik deganda biz shakldosh lug‘aviy birliklardan birining umumxalq tiliga, boshqasining terminologik tizimga mansub bo‘lishini, ichki omonimlikda esa shakldoshlik xususiyatiga ega lug‘aviy birliklar har ikkisining ham terminologik tizimga xosligini nazarda tutmoqdamiz. Terminologik tizim doirasidagi tashqi omonimiyaning bir ko‘rinishida ayni bir lug‘aviy birlik har xil fan va ularning muayyan tarmog‘iga xos tushunchalar nomini bildiradi. Masalan, *o‘zak* lug‘aviy birligi tilshunoslik, botanika, fiziologiya, tibbiyot; *assimilyatsiya* lug‘aviy birligi

<sup>3</sup> Лейчик В.М. Семантическая омонимия и многозначность в сфере терминов // Лексика и лексикография. – М.: Наука, 1981. – С. 115-121.

<sup>4</sup> Даниленко В.П. Об основных лингвистических требованиях к стандартизируемым терминам // Семиотические проблемы языков науки, терминологии и информатики. - М.: МГУ, 1971.



# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> May, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

tilshunoslik, botanika, etnografiya; *yadro* lug‘aviy birligi fizika, botanika, matematika, tilshunoslik fanlari doirasidagi tushunchalar nomi sifatida xizmat qiladi. Bu lug‘aviy birliklar anglatgan tushunchalar va ularning ma‘nolari munosabatida hech bir aloqadorlik yo‘q<sup>5</sup>. Bugunga qadar so‘zlar shakl (nomema) va ma‘no (semema) munosabati asosida omonim, polisemantik, sinonim, antonim, paronim kabi turlarga ajratib kelinmoqda. Aytish mumkinki, nomema - semema munosabati bo‘yicha ajratilgan so‘zlar guruhlarining nomema aspekti bo‘yicha ham o‘z yechimini kutayotgan masalalar anchagina. Masalan, sinonim so‘zlar tovush tomonlarining har xillik darajalarini aniqlash, polisemiya omonimiya hosil bo‘lishida nomema talaffuzining juz‘iy farqlanishiga intilish holatini o‘rganish, paronim so‘zlar nomemalarining farqlilik darajalarini belgilash, mustaqil so‘z turkumlari nomemalarining grammatikalizatsiya va leksikalizatsiya natijasida o‘zgarishlarga yuz tutishini tadqiq etish<sup>6</sup> lozim. Umuman olganda terminologiyada omonimlik hodisasi maqbul, mey‘oriy holat hisoblanmaydi. Lekin terminologiyalararo omonimiyaga yo‘l qo‘yiladi, chunki bundagi omonimlarning har biri o‘z terminologiya tizimida o‘ziga xos definitsiyaga, lug‘atda esa o‘ziga xos izohga ega bo‘ladi. Masalan, lug‘atda berilgan **pilla I** (*q. x.*) va **pilla II** (*tib.*) omonimiyasini yoki **reaksiya I** (*psxl tib.*) va **reaksiya II** (*siyos.*) omonimiyasini hamda ularning izohlarini qiyoslab ko‘rish mumkin. Omograf terminlar ham boshqa-boshqa so‘z sifatida bosh so‘z qilib berildi, faqat ularning talaffuzdagi farqi urg‘u yordamida ko‘rsatildi<sup>7</sup>. *Omonim terminlar* yozilishi va o‘qilishi bir xil, ammo turli sohalarda turli ma‘nolarni ifodalaydigan terminlarni ifodalovchi birliklar deb izohlash maqsadga muvofiq.

Ko‘plab soha terminlarida omonimiya hodisasi nutqiy voqealanadi. Umumadabiy leksik birlikning terminlashuv jarayoni natijasida omonimlashish sodir bo‘ladi, ya‘ni yangi ifodalanmish uchun ilgaridan ma‘lum bo‘lgan qobiqdan foydalaniladi<sup>8</sup>. Mana shunday usulda *burun*, *qo‘ltiq*, *bo‘g‘oz*, *qo‘l*, *barmoq* kabi terminlar shakllangan. Shaklan o‘xshash terminlarning turli fan sohalari

<sup>5</sup> Ermatov I. Termin va so‘z munosabatidagi ayrim mushtarak va nomushtarak jihatlar haqida / Ilm sarchashmasi. Urganch-2020, 8-son. -B. 66-67

<sup>6</sup> Muhamedova S., Shirinova Y. O‘zbek tili bank-moliya terminologiyasi sistema sifatida / Tilshunoslikning dolzarb masalalari. 6-kitob, -B. 162

<sup>7</sup> Madvaliyev A. O‘zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. Toshkent-2017. –B.198.

<sup>8</sup> Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания,- М.: Наука, 1977. –С 27



# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> May, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

terminologiyasida qo‘llanib, omonimik qatorlarni yuzaga chiqarishi ehtimoldan xoli emas. Chunonchi, *boks I* - sport, boks; *boks II* - tib. boks, alohida xona; *giperbola I* - til. mubolag‘a; *giperbola II* - mat. giperbola (konus kesimlaridan biri); *morfologiya I* - til. grammatikaning so‘z turkumlari haqidagi bo‘limi; *morfologiya II* -tib.; biol. odam va hayvon tanasidagi organlar va to‘qimalar shakli hamda tuzilishini o‘rganadigan fan; *konvergensiya I* - biol. turli organizmlarda bir xil tashqi muhit ta‘sirida o‘xshash belgilarning paydo bo‘lishi; *konvergensiya II* - fiz. ikkala ko‘z o‘q chizig‘ining bir nuqtada uchrashuvi; *konvergensiya III* - tib. o‘xshashlik, yaqinlik; *konvergensiya IV* - til.-birdan ortiq tovushning tarixiy taraqqiyot natijasida bir tovushga birlashishi; *bo‘z I* - mato turi; *bo‘z II* - o‘t turi (rangi bo‘yicha); *bo‘z III* - cho‘l, dasht, yobon; *bo‘z IV* - bot. tuklikovil; *assotsiatsiya I* - psix. muayyan sharoitda psixologik hosilalar orasida paydo bo‘ladigan aloqa; *assotsiatsiya II* - biol. tuzilishi va turlari bir xil fitotsenozlar majmui; *assotsiatsiya III* kimyo. molekulalar yoki ionlarning molekulalararo elektr tabiatli harakat kuchi ta‘sirida guruhlariga bo‘linishi; *assotsiatsiya IV* - siyosiy uyushma, birlashma; *assotsiatsiya V* - til. til birliklarining shakli yoki mantiqiy-semantik belgisiga ko‘ra o‘zaro birlashishi va sh.k. Shunga o‘xshash holat tibbiyot, tilshunoslik va boshqa sohalarda qo‘llanayotgan konversiya, substansiya, substitutsiya, transformatsiya kabi omonimlar qatorida ham aksini topgan<sup>9</sup>.

Maqolamizda bank-moliya va logistika sohalaridagi omonim terminlarga nuqtayi nazarimizni qaratdik. Bank-moliya terminlari orasida sinonimiya (*avans - bo‘nak, aksioner - hissador, marja - spread, makler- broker - dallol, penya - o‘sim*), antonimiya (*import - eksport, aktiv - passiv, inflatsiya - deflyatsiya, foyda - zarar*), omonimiya (*agent, aktiv, kapital, pul, ring*), polisemiya (*autsaydr, deponent, lot, valyuta*) singari shakl va ma‘no munosabatlari mavjudligi aniqlangan<sup>10</sup>. Bunday munosabatlar nafaqat bank-moliya terminologik sistemasi doirasida, balki til sistemasining boshqa sathlari bilan ham yuzaga kelishi mumkin. Logistikaga oid terminlarning polisemantik, omonimik xususiyatlarini yoritishda so‘zning semantik tuzilishi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u turli xil ma‘nolarni birlashtiradigan ko‘p qirrali hodisa hisoblanishini a‘lohida ta‘kidlash joiz. Bu

<sup>9</sup> Dadaboyev H. O‘zbek Terminologiyasi. Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – B. 93

<sup>10</sup> Muhamedova S., Shirinova Y. O‘zbek tili bank-moliya terminologiyasi sistema sifatida / Tilshunoslikning dolzarb masalalari. 6-kitob, -B. 131



# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> May, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

borada, ingliz olimi S.Ulmenning fikricha «turli tillarda polisemiya hodisasining dinamikasi bir qator lingvistik va ekstralingvistik omillarga asoslanib, jamiyatning rivojlanish jarayoni, nafaqat yangi soʻzlarni yasashda, balki mavjud boʻlgan terminlarga yangi maʼno qoʻshishda muhim sanaladi»<sup>11</sup>. Biroq tilshunos Z.Proshina terminni «faqat bitta maʼnoga ega ekan»<sup>12</sup>ligi xususida fikr yuritgan. Darhaqiqat, terminologiyada qoʻllanilgan termin faqatgina maʼlum bir sohaga oid boʻlgan maʼnoni anglatadi. Ingliz tilshunosi D.Paulning izohlashicha, «polisemiya – bir soʻz shaklining bir-biriga yaqin bir nechta maʼnolarining mavjudligidir»<sup>13</sup>. Terminlarda mavjud boʻlgan semantik munosabatlar ularning oʻziga xosligini ifodalaydi. Maʼlumki, *vazn* soʻzi biror bir narsaning oʻlchovini bildirib, transport logistikasi sohasida ham keng qoʻllaniladi. Vazn leksik birligi oʻzbek tilining izohli lugʻatida quyidagicha tavsiflanadi: 1) *kam qoʻll. Oʻlchov.* 2) *Ogʻirlik; ogʻirlik oʻlchami; salmoq.* 3) *koʻchma kam qoʻll. Shaxsning mavqei, mavqe darajasi.* 4) *ad. Sheʼriy satrda sheʼrning ritm ohangi va tuzilishini belgilovchi boʻgʻinlar soni va joylanishi; sheʼr oʻlchovlari.* 5) *mus. Musiqa asarida uning ritm ohangini va tuzilishini belgilovchi ritmik birliklar soni va joylanishi.* Yuqorida keltirilgan izohlardan maʼlum boʻldiki, *vazn* soʻzi nafaqat transport logistikasi, balki adabiyot, musiqa sohalarida ham maxsus termin sifatida ishlatiladi. Maʼlumki, logistika sohasida omonimiya hodisasi kam uchraydi. A.K.Kupsova omonimik xususiyatga ega boʻlgan terminlarni ikki guruhga ajratadi: *sohalararo va sohalar doirasidan tashqari yoʻnalishlarga oid terminlar.*<sup>14</sup> Demak, sohalararo omonimik xususiyatni ifodalovchi terminlar turli terminologik maydonlarga tegishli boʻladi. Sohalar doirasidan tashqari yoʻnalishlarga oid terminlar esa boshqa sohalarida yaratilgan va keng qoʻllanilgan koʻp maʼnoga ega leksemalar hisoblanadi. Misollar tahlilidan dalil boʻladiki, omonimik maʼno kasb etgan terminlar transport logistikasi sohasida juda kam

<sup>11</sup> Ullmann St. Words and their use. – London. 1951. – 236 p.

<sup>12</sup> Прошина З.Г. Теория перевода (с английского языка на русский и с русского языка на английский): Уч. на англ. яз. – Владивосток: Изд-во Дальневост. ун-та, 2008. – С.126.

<sup>13</sup> Paul D.Deane Polysemy and cognition//Lingua.Volume 75, Issue 4, August 1988, pages 325-361. URL:

<https://www.sciencedirect.com/journal/lingua/vol/75/issue/4>

<sup>14</sup> Суперанская А.В., Подольская Н.В., Васильева Н.В. Общая терминология: вопросы терминологии. – М., 1989. – С. 47.



# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> May, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

uchraydi, biroq ushbu soha doirasida qo‘llaniladigan ayrim leksemalar boshqa yo‘nalishlarda turlicha ma‘noda qo‘llaniladi. Demak, A.A.Reformatskiy ta’kidlaganidek, «terminologiyada omonimiya uning bir xususiyati sifatida qaraladi»<sup>15</sup>. Omonimik xususiyatga ega terminlarning paydo bo‘lishining asosiy sababi turli tizimli tillardan o‘zlashtirishning mavjudligidir. Logistikaning transport, konteyner va qadoqlash, marketing, menejment, savdo, huquqshunoslik kabi sohalar bilan yaqin aloqalari mavjudligi, ushbu sohalar ingliz tilidagi transport logistikasi terminologiyasida terminlarning «donorlari» hisoblanadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Арсеньева, М.Г. Многозначность и омонимия / Изд-во Ленингр. ун-та, 1966.
2. Виноградов В.В. Об омонимии в русской лексикографической традиции. – М., 1977.
3. Лейчик В.М. Семантическая омонимия и многозначность в сфере терминов // Лексика и лексикография. – М.: Наука, 1981.
4. Даниленко В.П. Об основных лингвистических требованиях к стандартизируемым терминам // Семиотические проблемы языков науки, терминологии и информатики. - М.: МГУ, 1971.
5. Ermatov I. Termin va so‘z munosabatidagi ayrim mushtarak va nomushtarak jihatlar haqida / Ilm sarchashmasi. Urganch-2020, 8-son.
6. Muhamedova S., Shirinova Y. O‘zbek tili bank-moliya terminologiyasi sistema sifatida / Tilshunoslikning dolzarb masalalari. 6-kitob.
7. Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания, - М.,: Наука, 1977.
8. Dadaboyev H. O‘zbek Terminologiyasi. Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020.
9. Ullmann St. Words and their use. – London. 1951. 236 p.
10. Прошина З.Г. Теория перевода (с английского языка на русский и с русского языка на английский): Уч. на англ. яз. – Владивосток: Изд-во Дальневост. ун-та, 2008.
11. Paul D.Deane Polysemy and cognition//Lingua.Volume 75, Issue 4, August 1988.

<sup>15</sup> Реформатский А.А. Мысли о терминологии // Современные проблемы русской терминологии: сб. ст. –М.: Наука, 1986. – С. 163-198 -188

## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> May, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

12. Суперанская А.В., Подольская Н.В., Васильева Н.В. Общая терминология: вопросы терминологии. –М., 1989.

14. Реформатский А.А. Мысли о терминологии // Современные проблемы русской терминологии: сб. ст. –М.: Наука, 1986.

15. <https://www.sciencedirect.com/journal/lingua/vol/75/issue/4>



# E- Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings



E- CONFERENCE  
SERIES